




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

“MALIKA AYYOR” DOSTONI VARIANTLARIDA HASANXON OBRAZI TAHLILI

ANALYSIS OF THE CHARACTER OF HASANXON IN THE VARIANTS OF THE EPIC “MALIKA AYYOR”

Nasiba SIDIKOVA,

Sam DCHTI dotsenti

Sevinch G'AFFOROVA,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0004-1774-6201>

10.52773/tsuull.conf.2026/NIXO4275

Annotation. *This article provides a comparative and textual analysis of the mythopoetic layer and the system of characters across different variants of the epic “Malika Ayyor”, which belongs to the “Gorgoli” epic cycle. The study explores the epic nature of the mysterious character Shozargar, who actively participates in the plot, alongside his characteristics of metamorphosis (transformation). Through a comparative investigation with other related epics in the cycle and the mythology of the artisan-master cult, the study scientifically demonstrates that the persona of Hasanxon—one of the fundamental heroes of the “Gorgoli” cycle—lies directly beneath this character as his artistic transfiguration. Furthermore, the article uncovers the evolution, transformation, and laws of epic syncretism regarding this character's functions within the variants performed by Fozil Yuldosh ogli, Melash bakhshi, Yorlaqab bakhshi, and Togay shoir.*

Key words: “Malika Ayyor” epic, Shozargar, Hasanxon, comparative analysis, blacksmithing, metamorphosis, epic syncretism.

“Malika ayyor” dostoni “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari ichida o‘zining mifopoetik qatlami, obrazlar tizimi va motivlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu nom ostida ijro etilgan dostonning to‘rtta varianti aniqlangan bo‘lib, ular “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining 41-jildiga obyekt manbasi bo‘lib xizmat qilgan. Dostonda asosiy epik vazifalar Go‘ro‘g‘li va uning asrandi farzandi Avazxon tomonidan bajariladi. Bu o‘rinda ikkinchi farzand – Hasanxon nomi matnda to‘liq va ochiq shaklda tilga olinmaydi. Biroq doston voqealari rivojida Shozargar laqabli qalandar obrazining faol ishtirok etishi asardagi mazkur yashirin funksiyani aynan Hasanxon bajarganiga ishora qiladi va buni tasdiqlovchi bir qator dalillar mavjud.

Jumladan, Go‘ro‘g‘li chiltanlar va eranlar yordamida o‘z nomini hamda tashqi qiyofasini o‘zgartirib, Shoqalandar qiyofasiga kirganida, unga sirdosh hamroh sifatida aynan Shozargar qo‘shiladi. Doston qahramonlarining nomlanishi va ijtimoiy statusiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, mazkur ikkinchi qalandar o‘zini usta Zargar deb tanishtiradi hamda quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

Rum elida men ham Hasan Podshoman,

Yor ishqidan qalandar bo‘p yuraman.

Rum elidan o‘zim oshib kelaman,

Bu yo‘llarda sarson bo‘lib yuraman.

*Laqabimni deydi ustayi Zargar,
Torkistonda Tillaqizday yorim bor,
Malikani aytsang ko'nglim buzilar,
Borar bo'lsang, men ham yo'ldosh, Avazxon* [Malika ayyor, 2025: 89].

Shozargarning ushbu nutqidan ma'lum bo'ladiki, uning asl ismi Hasan va u oliy tabaqaga mansub – podshohdir. “Go'ro'g'li” turkum dostonlari poetikasiga ko'ra, Go'ro'g'lining ikkinchi asrandi o'g'lining ismi ham aynan Hasanxon bo'lib, u ham muayyan epik variantlarda podshoh farzandi sifatida tasvirlanadi. Qahramonning zargarlik hunari bilan aloqadorligini ilmiy jihatdan asoslash uchun uning turkumdagi boshqa dostonlardagi talqinlariga nazar tashlash lozim. Xususan, Rahmatilla Yusuf o'g'lining “Hasanxon” dostonida Hasanxon yoshligidan zargarlik ilmini o'rganayotgan bola sifatida ta'riflanadi:

“Go'ro'g'libek Vayangan shahriga yetib borib, ser solib qarasa, bir kichikroq do'konda o'rta yashar Zargar har xil bezaklarni ko'rsatib, oy desa oyday, kun desa kunday, benuqson, yoshgina chiroylik bolaga ko'rsatib, buni unday qil, bunday qil, deb turibdi” [Xasanxon, 2023: 261].

Zohir Qo'chqor o'g'lining “Hasanxon” variantida esa qahramonning kelib chiqishi temirchilik kasbi bilan bog'lanadi:

“...Isfihon shahrida Shodiyon degan temirchining o'g'li edi. Hasanxon o'g'lini usta Mudom Saribozor do'koniga otadan meros, deb shogird qilib yopishtirdi. Bu ustaning ikki xotini bor edi, birining otini Mastonoy, ikkinchisining otini Bo'stonoy der edi. Hasanxon Mastonoyning o'g'li edi, Bo'stonoy shu eshikning cho'risi, xizmatkori edi. Mastonoyning bo'yi yetib, ko'rganning havasi ketib Shodiyon, bir ko'rganda ishq ketib, o'zining birinchi xotini etib yurdi. Hasanxon bu onasining zulmidan chidayolmay uyga ham kelmasdan otasidan ginador bo'lib, do'konni yuritir edi” [Xasanxon, 2023: 184].

An'anaviy xalq dunyoqarashida temirchilik va zargarlik hunarmandchilikning temirchilik mifologiyasiga daxldor bir tub asosga ega tarmoqlari hisoblangan. Shu bois, obrazning dostonlarda goh temirchi, goh zargar sifatida berilishi uning genezisi bir nuqtaga borib taqalishini anglatadi.

Boshqa bir tomondan, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan o'z ijrosida Hasanxonni Vayangan podshohi Temirxonning o'g'li deya tasvirlaydi. Keltirilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Hasanxon garchi usta-temirchi oilasida dunyoga kelib tarbiyalansa-da, dostonchilik an'anasida u ideallashtiriladi. Dostonlarda bosh qahramon darajasiga ko'tariladigan shaxs xalq orzu-armonlarini amalga oshiruvchi ideal timsol bo'lishi lozim. Shu sababdan Po'ltan shoir variantida u oddiy hunarmand emas, balki podshoh o'g'li sifatida aks etadi. Mazkur epik qolip Shozargarning o'zini “Rum elining shohiman” deya tanishtirishi bilan to'liq mos keladi va uning ichki qiyofasi ostida aynan Hasanxon yashiringanini tasdiqlaydi.

Asli Vayanganda tug'ilgan Hasanxonning goh xon oilasida, gohida esa oddiy temirchi oilasida dunyoga kelganligi haqidagi baxshilar talqini qadimgi usta-hunarmand kulti va uning mifologik tabiati bilan izohlanadi. Shu sababli ham mifologik koordinatada Ko'k malikasi Yunus pari ilohiy quvvat vakili sifatida Avazxonni, Yer parisi Misqol pari esa yerosti va yer yuzi boyliklari (ma'dan, olov) ramzi sifatida Hasanxonni o'zlariga farzandlikka qabul qiladilar. Bu esa Avazxonning epik ibtidosi samoga (Ko'kka), Hasanxonning tabiati esa bevosita Yer unsurlariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Keltirilgan qiyosiy-mifologik ma'lumotlar asosida "Malika ayyor" dostonidagi Shozargar obrazi ostida bevosita Hasanxon shaxsi ishtirok etadi, degan ilmiy xulosaga kelish mumkin. Ushbu xulosadan kelib chiqqan holda, qahramonning doston variantlaridagi transformatsiyasini qiyosiy tahlil etish obyektiv natijalarni beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Malika ayyor" dostonining syujet chiziqlari, fikrlar izchilligi va voqealar ketma-ketligi to'liq saqlangan mukammal varianti aynan Fozil Yo'ldosh o'g'liga tegishli bo'lib, boshqa ijrochilar variantlarida tizimli o'zgarishlar ko'zga tashlanadi: ba'zan Shozargar obrazi butunlay tushirib qoldiriladi, ba'zida esa u Shoqalandar bilan bitta personaj sifatida qorishiq talqin qilinadi.

Xususan, Melash baxshi Ermat o'g'li ijro etgan "Avazxon va Malikai Dilorom"[Malika ayyor, 2025: 262] dostonida Shozargar obrazi umuman ishtirok etmaydi. Syujet rivojidadagi unga tegishli barcha funksional vazifalarni bevosita Shoqalandar o'z zimmasiga oladi.

"Malika ayyor" dostonining Yorlaqab baxshi Beknazar o'g'li variantida[Malika ayyor, 2025: 306] esa voqealar tizimi asosan Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti hodisalaridan sug'orilgan bo'lib, syujet qurilishida ko'p o'xshashliklar kuzatiladi. Ushbu variantda Zargar obrazi matnda mustaqil ishtirok etadi. U Tillaqizga g'oyibona oshiq bo'lgan va uning ishqida o'z yurtidan safarga chiqqan qahramon sifatida tasvirlanadi. Biroq, Fozil Yo'ldosh o'g'li variantidan farqli o'laroq, u tilla yo'lbars yasash jarayonida faol ishtirok etmaydi, balki uzuk, bilakuzuk vositasida g'ayritabiiy qiyofalarga (kalamush, ilon, kal) kirib, Tillaqizni qimorda yutish va o'zi bilan olib ketish vazifasini bajaradi. Shuningdek, devlar bilan bo'ladigan janglarda Avazxonga ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan ko'mak beradi:

*"Kir sovutni tekkizmaydi etiga,
Qamchi urdi juyruk tulpor otirga.
Usta Zargar, Shoqalandar ikkovi,
Duo qildi Avazxonning haqiga,
Muhri fotihani tortdi betiga"*[Malika ayyor, 2025: 359].

Tog'ay shoir Norboy o'g'li variantida esa Zargar va Shoqalandar obrazlarining epik vazifalari deyarli bir xil darajaga keltirib ko'rsatiladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonida har qanday tilsim yoki g'ayritabiiy muammo asosan Shoqalandar (Go'ro'g'li) tomonidan hal etilgan bo'lsa, Tog'ay baxshi variantida har ikki obrazning – ham Zargar, ham Shoqalandar nomi barobar va teng pozitsiyada tilga olinadi:

"– Uluma tozim, uluma, xudo Zargar, Qalandardan saqlasin! Kishnama, otim, kishnama, xudo Zargar, Qalandardan saqlasin! – deb devlar lopillab, o't bo'lib osmondan tushaberdi" [Malika ayyor, 2025: 395].

Ayni shunday funksional tenglik va parallelizm Yorlaqab baxshi kuylagan variantda ham mavjud bo'lib, baxshi har ikki obrazning xususiyatlarini bir xil epik doiraga joylashtiradi:

*"– Ko'lining ko'rki lochin bilan ilvasin,
Qilgan ishim Lotu Manot o'nglasin.
Balo kelsa kelsin mazgil xonamga,
Usta Zargar, Shoqalandar kelmasin,
Hay-hay, Qalandardan o'zing pano ber!"* [Malika ayyor, 2025: 342]

Vaholanki, yuqorida ta'kidlanganidek, Fozil Yo'ldosh o'g'li o'z variantida barcha g'ayritabiiy tilsimotlar ustidan hukmronlik qilish va pirlik xususiyatini faqat Shoqalandarga yuklaydi. Devlarning barchasi aynan undan vahimaga tushadi va har bir duosida undan uzoq bo'lishni so'raydi:

“... Bu tulporni mingan kishi o'lmay, qutulib, Malikani olib ketadi. Baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, – deb devlar gurillab, chuvillab duo qildi” [Malika ayyor, 2025: 105].

Tog'ay baxshi variantining Fozil Yo'ldosh o'g'li an'anasi bilan o'xshash jihati shundaki, ushbu dostonida ham Zargar o'z yoqasidan sehrli igna olib, uni “kuf-suf” deb pariga aylantiradi, Zargar uxlaganda esa pari ham o'z yoqasidan igna olib, uni ikki boshli barzangiga aylantiradi. Zargarga ushbu sirli holatning bayonini Avazxon nonni to'rt bo'lakka bo'lib, ikkalasi bir donadan olib qolgan ikki bo'lakning asl egasini topish orqali oshkor qiladi. Biroq, voqealar rivojining qolgan qismlarida Zargarining mustaqil faoliyati sustlashadi va u Qalandar (Go'ro'g'li) bilan yagona bir epik obraz sifatida qorishib ketadi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti dostonning eng to'liq matni bo'lib, unda Hasanxonning transfiguratsiyasi bo'lgan Zargarining asl badiiy mahorati, hunari va harakat dinamikasi mukammal ko'rsatib berilgan. Jumladan, Avazxon tasodifan Malikaning yo'lbarsini o'ldirib qo'ygani, uning o'rniga oltindan yangi tilsimli yo'lbars yasash majburiyatini aynan Shozargar o'z bo'yniga oladi:

“Shozargar sherni shunday yasab sozladi, sherning ichidan murvat bilan ochadigan qilib, sozlab, boplab yasadi. Ot jasadli. Ichidan murvatli, shunday suratli jinqarcha, musicha, murotalibachcha, to'ti, qumri, mayna, bulbul – shunday qushlarning suratini shu sherning jasadiga qo'shib, juda choqlab, hech kim ko'rmagan she'r qilib qo'ydi...” [Malika ayyor, 2025: 127]

Ushbu qahramonning yana bir muhim epik missiyasi Tillaqizni olib kelish maqsadida ishlatgan turli qiyofadoshlik (metamorfoza) xiylalarida yaqqol ko'rinadi. Malika Ayyorni olib qaytayotganlarida ortda qolib ketgan Shozargar duo o'qib uzuk shakliga kiradi va u orqali Oqdevshoh qizi Tillaqizning saroyiga kirib boradi. Mazkur jarayonda u g'ayritabiiy kuchini ishga solib, ketma-ket kalamush, ilon, yumronqoziq va kal qiyofalariga o'zgaradi hamda Tillaqizni qimorda yutadi. Uni olib, hamrohlari ortidan yetib boradi.

Doston variantlari davomida Zargarining tilsimotlar o'qib o'z qiyofasini g'ayritabiiy ravishda o'zgartirishi yoki Shoqalandar bilan birgalikda Avazxonni duo qilib, unga ma'naviy-g'oyaviy ustozlik qilishi uning ham oddiy inson emas, balki g'ayrioddiy pirlik xislatiga ega, tanlangan qahramon ekanligidan dalolat beradi. Rahmatilla Yusuf o'g'li kuylagan “Hasanxon” dostonida keltirilgan mifologik ma'lumotlar ham buni to'liq tasdiqlaydi: unda g'oyib pirlaridan bo'lgan Bobo qalandar butun turkum davomida faqat uch kishigagina – Go'ro'g'liga, Xoldorxonga va Hasanxongagina ko'rinishi hamda ularga maxsus ta'lim bergani ta'kidlanadi. U Go'ro'g'liga Sulaymon podshodan qolgan muqaddas so'ta va pirlik nisbatini topshirsa, Xoldorxonga komil ustalikni, Hasanxonga esa uzoq masofani bir daqiqada bosib o'tish (tayyi makon) ilmini o'rgatadi. Jang-u jadallarda qahramonlarni yengilmas qiladigan qurol-aslahalarning egasi bo'lish esa uning an'anaviy mifologiyadagi temirchilik kasbi va kultining egasi ekanligi bilan uzviy bog'liqdir.

“Malika ayyor” dostonining variantlar doirasidagi qiyosiy-tekstologik tahlili shuni ko'rsatadiki, syujetda sirli qiyofada namoyon bo'luvchi Shozargar timsoli shunchaki tasodifiy yoki yordamchi obraz emas, balki “Go'ro'g'li” turkumining asosiy

qahramonlaridan biri – Hasanxonning badiiy va mifopoetik transfiguratsiyasidir. Uning matndagi “Hasan podsho” deb uqtirilishi, sirtiligi hamda zargarlik-temirchilik hunari bilan bog‘liqligi “Hasanxon” dostonlaridagi an’anaviy usta kulti ibtidosiga borib taqaladi.

Doston variantlarini o‘zaro qiyoslaganda, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida mazkur qahramonning mustaqil funksionalligi, zargarlik sehri va metamorfoza imkoniyatlari to‘liq va izchil saqlangani aniqlandi. Melash baxshi variantida obrazning butunlay tushib qolishi, Yorlaqab baxshi va Tog‘ay shoir variantlarida esa uning vazifalari qisman qisqarib, Shoqalandar (Go‘ro‘g‘li) timsoli bilan funksional tenglashishi yoki qorishib ketishi o‘zbek xalq dostonchiligidagi epik sinkretizm hamda baxshilik maktablarining variant yaratish qonuniyatlaridan dalolat beradi. Shozargarning epik tabiati zamirida Hasanxon qiyofasining yotishi “Go‘ro‘g‘li” turkumi tizimidagi ichki dostonlararo motivlar va obrazlar evolyutsiyasining uzviyligini ta’minlovchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Малика айёр/ Айтувчилар: Фозил Йўлдош ўғли, Мелаш бахши Эрмат ўғли, Ёрлақаб Бекназар ўғли, Тоғай шоир Норбой ўғли. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жилдлик. 41-жилд. Нашрга тайёрловчилар: Ш.Турдимов в.б. – Тошкент: Madad oshiyoni, 2025. – 454 б.

2. Ҳасанхон/ Айтувчилар: Муҳаммад Жомрод ўғли Пўлкан, Раҳматулла Юсуф ўғли, Зоҳир Қўчқор ўғли. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жилдлик. 27-жилд. Нашрга тайёрловчилар: М.Жўраев, Ш.Турдимов, Б.Мирзаева, Д.Игамуратова. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2023. – 452 б.

3. https://www.researchgate.net/publication/395568187_ANALYSIS_OF_THE_CHARACTER_RELATIONSHIPS_OF_HASAN_KHAN_IN_THE_EPIC_CYCLE_OF_GOROGLY?tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlIjoicHJvZmlsZSJ9fQ

